



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025
1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 1-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
А.Х.Мингбоев

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Наргиза Музафаровна Бабаева Жаҳон лизинг хизматлари бозорининг ҳолати таҳлили ва ўзбекистонда унинг ривожланиш тенденциялари.	70
Рамз Зоиржон ўғли Мухаммадиев Тиббий хизмат сифатини яхшилашда юқори технологиялар ўрни.	77
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Гульнара Мардиевна Шадиева, Бону Бахтиёрвна Давронова Туризм в Узбекистане: драйвер экономического роста и социальной стабильности	80
Maksuda Valeriyevna Israilova Sog'lomlashtirish turizmning mohiyati va rivojlanish tarixi.	84
Dilshod Usmanovich Ruzmanov Turizmда madaniy-tarixiy resurslar salohiyatidan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish	90
Nargiza Akbardjonovna Abduvaxidova Barqaror turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar	94
Фарход Абдихидович Бекназаров, Азиза Пирмаматовна Махмудова Мамлакатимиз экотизими ва маданий меросини комплекс сақлаш ҳамда минтақада экотуризмни ривожлантиришда геопапркларнинг ўрни	99
Aziza Javaxirovna Mir-Djafarova Iqtisodiyotni raqamlashtirishda turizm va mehmonxona xizmatlarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish	103
Камилла Бахромовна Суюнова, Олтинбек Бобирович Умаров Роль маркетинговых стратегий в развитии цифровизации сферы туризма в Узбекистане	108
Rayhona Sadriddinovna Amriddinova, Sitara Otabekovna Xamroyeva Jismoniy imkoniyatlari ma'lum darajada cheklangan insonlar turizmini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati	111
Parvina Asliddin qizi Xolmatova Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	114
Xasan Ibragimovich Turdibekov O'zbekiston sharoitida overturizmni baholash uslubiyatini takomillashtirish	118
Aziza Yusufbekovna Talibova O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ekskursiya xizmatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari	122
Нодир Нозимович Негматов Роль визуальных и культурных стимулов Узбекистана в формировании лояльности туристов: нейромаркетинговый подход.	127
Nodirjon Abduxalil o'g'li Xoliqov, Ibragim Xudayarovich Nimatov O'zbekiston Respublikasi turistik salohiyati: tahlillar va istiqbollar	132
Азиза Пирмаматовна Махмудова, Ситора Отабековна Ҳамраева Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда Big Data технологияларидан фойдаланиш йўллари	138
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Nigina Marupovna Usmanova, Mavluda Shuxratjon qizi Nishonova Qarorlar qabul qilish jarayonini tahlil qilish va korxonada boshqaruvni takomillashtirish yo'llari	140
Gulshan Akmalovna Abduvohidova Tashkilot intellektual resurslarini boshqarish tamoyillari	145

eshitish qobilyatida nuqsoni bor turistlar uchun esa maxsus texnologiyalar orqali panorama ko'rgazmali shoular orqali ularga turistik obyektlar haqida ma'lumotlar berib borish ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti. Jahon banki. Nogironlik bo'yicha jahon hisoboti 2011. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti; Valletta, Malta: 2011. [[Google Scholar](#)]
2. Pyaneandee C. International Disability Law: A Practical Approach to the United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Routledge; New York, NY, USA: 2018.
3. Rasmussen M., Lewis O. United Nations Convention on the Rights of Persons With Disabilities. Int. Leg. Mater. 2007;46:441–466. doi: 10.1017/S0020782900005039.
4. Xurramov Ortiqjon Qayumovich Buxoro davlat universiteti “Raqamli turizm” oliy talim muassasalari uchun darslik Buxoro 2021 “Durdona” nashriyoti.
5. Sayfutdinov Sh.S., Baxromov A.A Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Turizmدا innovatsiya” kitobi Toshkent 2023
6. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti N.R.Zaynalov “Turizmدا axborot texnologiyalari” o'quv qo'llanma “Voris nashriyoti” Toshkent 2017
8. Analiza Rozwoju Turystyki Społecznej w Polsce. Stan, Szanse i Zagrozenia / Polshada ijtimoiy turizmni rivojlantirish tahlili. Holat, imkoniyatlar va tahdidlar. Instytut Turystyki; Varshava, Polsha: 2007.

Elektron havolalar.

7. <https://www.unwto.org/accessibility>
9. <https://global.honda/en/japan-mobility-show/2023/info/Ashirase/>
10. <https://global.honda/en/newsroom/news/2021/c210611beng.html>

<p>Р.Амриддинова, С.Хамроева Значение инновационных технологий в развитии туризма для людей с ограниченными физическими возможностями</p> <p>Аннотация. В данной статье рассмотрены некоторые проблемы, возникающие при путешествии лиц с определенным уровнем инвалидности, и возможности ряда современных инновационных технологий, направленных на их устранение.</p> <p>Ключевые слова: инновационные технологии, цифровой туризм, транспортные средства, социальная инвалидность, японские инновационные технологии.</p>	<p>R.Amriddinova, S.Khamroeva The importance of innovative technologies in the development of tourism of people with limited physical capabilities</p> <p>Abstract. This article looks at some of the challenges that arise when travelling for people with certain levels of disabilities and the possibilities of a number of modern innovative technologies aimed at eliminating them.</p> <p>Keywords: innovative technologies, digital tourism, vehicles, social disability, Japan innovative technologies.</p>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Parvina Asliddin qizi Xolmatova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tayanch doktoranti

HUDUDLARDA EKOTURIZMNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMI

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarda ekoturizmni rivojlantirish va tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari o'rganilgan. Dunyo tajribasi asosida O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari tahlil qilingan. Maqolada ekoturizmni rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari, moliyaviy instrumentlari va huquqiy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekoturizm, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, turistik resurslar, atrof-muhit muhofazasi, bandlik darajasi.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri

turizm hisoblanadi. So‘nggi yillarda an’anaviy turizmdan farqli ravishda, ekologik turizm yo‘nalishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, global turizm bozoridagi ekoturizm ulushi yildan-yilga ortib bormoqda va 2023-yilda umumiy turizm hajmining 15 foizini tashkil etgan.¹

So‘nggi yillarda ekoturizm global miqyosda tez sur’atlar bilan rivojlanib, atrof-muhitni muhofaza qilish va mahalliy iqtisoiyotlarni qo‘llab-quvvatlashda muhim omilga aylanmoqda. Shu sababdan O‘zbekiston Respublikasida ham ekoturizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, mamlakatning boy tabiiy resurslari va madaniy merosidan samarali foydalanish orqali hududlarning iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shish asosiy maqsad etib belgilangan.

O‘zbekistonda ham ekoturizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud bo‘lib, bu sohani rivojlantirish uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakatimizda 17 ta qo‘riqxon, 10 ta milliy bog‘, 9 ta buyurtmaxona va ko‘plab noyob tabiiy obyektlar mavjud bo‘lib, ular ekoturizm uchun muhim resurs hisoblanadi.²

Ekoturizm atrof-muhitga minimal ta’sir ko‘rsatgan holda, mahalliy aholining farovonligini oshirish va tabiiy resurslarni asrash imkonini beradi. Shu bilan birga, ekoturizmni rivojlantirish orqali qishloq hududlarida yangi ish o‘rinlari yaratish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy aholining daromadlarini oshirish mumkin. Ekoturizm nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ham ega bo‘lib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va davlat dasturlarini amalga oshirilmogda. Biroq, sohaning rivojlanishi uchun hali ko‘plab tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish talab etiladi. Xususan, infratuzilmani rivojlantirish, xizmatlar sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash, marketing strategiyalarini takomillashtirish va moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil va sintez usullari tashkil etadi. Tadqiqot doirasida ekoturizm sohasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganib chiqildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hududlarda ekoturizmni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha xorijlik va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Jumladan, Abduvaliyev B.³ O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy asoslarini tadqiq etgan bo‘lib, uning tadqiqotlarida ekoturizm sohasidagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatib berilgan. Olim tomonidan ekoturizm obyektlarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan.

Petrov V.V.⁴ o‘z tadqiqotlarida ekoturizmni moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o‘rgangan. Uning ishlarida ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish manbalari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo‘llari va soliq imtiyozlari tizimini joriy etish masalalari yoritilgan. Olim ekoturizmni moliyalashtirishning innovatsion usullari imkoniyatlarini ham tadqiq etgan.

Williams P.⁵ ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilgan bo‘lib, uning tadqiqotlarida ekoturizmning mahalliy aholi farovonligiga ta’siri, bandlik darajasini oshirishdagi roli va mintaqaviy rivojlanishga qo‘shadigan hissasi ko‘rsatib berilgan. Olim tomonidan ekoturizmning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati ham o‘rganilgan.

Huquqiy mexanizmlar sohasida ekoturizm faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish talab etiladi. Xususan, "Ekoturizm to‘g‘risida"gi alohida qonun qabul qilish, ekoturizm obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibini belgilovchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish lozim. Bundan tashqari, ekoturizm subyektlari faoliyatini

¹ UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni. 2024-yil.

³ Abduvaliyev, B. (2023). O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy jihatlar. Iqtisodiyot va ta’lim, 5(2), 45-52.

⁴ Петров, В.В. (2023). Механизмы финансирования экологического туризма. Экономика и управление, 8(4), 78-85.

⁵ Williams, P. (2024). Socio-economic impacts of ecotourism development. Journal of Sustainable Tourism, 32(1), 112-125.

litsenziyalash va sertifikatlash tizimini joriy etish, xususiy sektor faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur ¹.

Johnson M.² ekoturizmni moliyalashtirishning barqaror mexanizmlarini o'rgangan bo'lib, uning tadqiqotlarida ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyasi, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik va "yashil moliyalashtirish" instrumentlaridan foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Karimov A.A.³ ekoturizm klasterlarini shakllantirish masalalarini tadqiq etgan. Uning ishlarida ekoturizm klasterlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari, klaster ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tashkil etish mexanizmlari va klasterlarning samaradorligini baholash usullari yoritilgan.

Mirzaxmedova N.⁴ o'z tadqiqotida O'zbekistonda ekoturizmning iqtisodiy samaradorligini baholab, davlat siyosati va investitsion yondashuvlar muhim ekanligini ta'kidlagan. Ammo shu paytgacha amalga oshirilgan izlanishlar yetarli darajada emas va mos ravishda adabiyatlarda ham kam yoritilgan. Ushbu holat mazkur mavzuda tadqiqot olib borishga asos bo'ldi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kompleks xarakterga ega bo'lib, ular huquqiy, moliyaviy, tashkiliy va marketing mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Bu mexanizmlarning samaradorligi ko'p jihatdan ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldirishiga bog'liq.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning quyidagi asosiy muammolarini aniqlash imkonini berdi:

- Ekoturizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi;
- Mahalliy aholining ekoturizm faoliyatiga jalb etilish darajasining pastligi;
- Marketing strategiyalarining samarali yo'lga qo'yilmaganligi;
- Xalqaro hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bu borada xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, xududlarda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi aniqlandi:

Moliyaviy mexanizmlar bo'yicha ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yo'nalishda quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq (1-rasm).

Tashkiliy mexanizmlar doirasida ekoturizm klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Klasterlar doirasida turistik kompaniyalar, mehmonxonalar, transport kompaniyalari, ta'lim muassasalari va boshqa manfaatdor tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali ekoturizm infratuzilmasini yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish mumkin.

Marketing mexanizmlari bo'yicha O'zbekistonning ekoturistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib qilish, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda marketing strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Bu borada quyidagi yo'nalishlarda ishlash talab etiladi:


- Ekoturistik brendni shakllantirish;
- Raqamli marketing instrumentlaridan keng foydalanish;
- Xalqaro turizm ko'rgazmalari va yarmarkalarida muntazam ishtirok etish;
- Xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. 2023-yil.

² Johnson, M. (2023). Sustainable financing mechanisms for ecotourism development. *International Journal of Tourism Research*, 25(3), 234-245.

³ Каримов, А.А. (2024). Экотуризм кластерларини ривожлантириш истиқболлари. *Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар*, 3(1), 89-97.

⁴ Mirzaxmedova N. (2020) O'zbekiston Respublikasi turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishiga ekoturizmning ta'siri. *O'zbekisto milliy universiteti ilmiy jurnali*, 4(1), 67-68.



1-rasm. Moliyaviy mexanizmlar bo'yicha ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish choralari

Kadrlar tayyorlash mexanizmlari doirasida ekoturizm sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va zamonaviy ta'lim dasturlarini joriy etish zarur. Mahalliy aholini ekoturizm faoliyatiga jalb etish uchun ularning malakasini oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish lozim.

Monitoring va nazorat mexanizmlari bo'yicha ekoturizm faoliyatining atrof-muhitga ta'sirini baholash tizimini joriy etish, xizmatlar sifatini nazorat qilish va statistik hisobotlar tizimini takomillashtirish talab etiladi. Bu borada xalqaro standartlar va sertifikatlash tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion mexanizmlar doirasida ekoturizmدا zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, "aqlii turizm" elementlarini joriy etish va raqamli transformatsiyani amalga oshirish zarur. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kabi innovatsion yechimlardan foydalanish ekoturizm xizmatlarining sifatini oshirish va turistlar oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yuqorida keltirilgan mexanizmlarning samarali ishlashi uchun barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri yo'lga qo'yilishi hamda xalqaro tajribaning mahalliy sharoitlarga moslashtirgan holda joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Hududlarda ekoturizmni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligini talab etadi. Samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali ekoturizmni barqaror rivojlantirish, mahalliy aholining farovonligini oshirish va tabiiy resurslarni asrash mumkin.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, ekoturizm sohasidagi qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, xususiy sektorning faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur. Bu orqali ekoturizm sub'ektlari faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanadi.

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektorning ishtirokini oshirish lozim. Bu ekoturizm obyektlarining sifatini oshirish va xizmatlar turlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, ekoturizm loyihalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, maxsus jamg'armalar tashkil etish va soliq imtiyozlari tizimini joriy qilish zarur.

To'rtinchidan, mahalliy aholini ekoturizm faoliyatiga faol jalb qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning malakasini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rish lozim. Bu orqali qishloq hududlarida bandlik va daromadlar darajasini oshirish mumkin.

Yuqoridagi tavsiyalarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda ekoturizmning barqaror rivojlanishiga, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga va pirovard natijada mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni. 2024-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasining "Turizm to‘g‘risida"gi Qonuni. 2023-yil.
3. Abduvaliyev, B. (2023). O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning huquqiy jihatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, 5(2), 45-52.
4. Johnson, M. (2023). Sustainable financing mechanisms for ecotourism development. International Journal of Tourism Research, 25(3), 234-245.
5. Каримов, А.А. (2024). Экотуризм кластерларини ривожлантириш истиқболлари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар, 3(1), 89-97.
6. Mirzaxmedova N. (2020) O‘zbekiston Respublikasi turizm sanoatining iqtisodiy rivojlanishiga ekoturizmning ta’siri. O‘zbekisto milliy universiteti ilmiy jurnali,4(1), 67-68.
7. Петров, В.В. (2023). Механизмы финансирования экологического туризма. Экономика и управление, 8(4), 78-85.
8. UNWTO (2023). World Tourism Barometer. Madrid: World Tourism Organization.
9. Williams, P. (2024). Socio-economic impacts of ecotourism development. Journal of Sustainable Tourism, 32(1), 112-125.

<p>П.Холматова</p> <p>Организационно-экономический механизм организации и развития экотуризма в регионах</p> <p>Аннотация. В данной статье рассмотрены организационно-экономические механизмы развития и организации экотуризма в регионах. На основе мирового опыта проанализированы возможности развития экотуризма в Узбекистане, существующие проблемы и их решения. В статье рассмотрены современные механизмы, финансовые инструменты и правовые основы развития экотуризма.</p> <p>Ключевые слова: экотуризм, организационно-экономический механизм, экономический рост, устойчивое развитие, нормативно-правовые документы, туристские ресурсы, охрана окружающей среды, уровень занятости.</p>	<p>P.Kholmatova</p> <p>Organizational and economic mechanism of organization and development of ecotourism in the regions</p> <p>Abstract. This article explores the organizational and economic mechanisms for the development and organization of ecotourism in the regions. Based on the world experience, the possibilities of developing ecotourism in Uzbekistan, the existing problems and their solutions have been analyzed. The article examines the modern mechanisms, financial instruments and legal framework for the development of ecotourism.</p> <p>Keywords: ecotourism, organizational-economic mechanism, economic growth, sustainable development, regulatory and legal documents, tourist resources, environmental protection, employment level.</p>
-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Xasan Ibragimovich Turdibekov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, i.f.n.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA OVERTURIZMNI BAHOLASH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida turizm oqimlarining ortiqcha yuklanishi – overturizm tushunchasining nazariy asoslari va jahon tajribasi tahlil qilingan. Ishda O‘zbekistonda turizm sohasida so‘nggi yillarda kuzatilgan keskin o‘shish sharoitida, ayniqsa Samarqand shahri misolida, turizm yo‘nalishlarining me‘yoriy sig‘imi va mahalliy aholi hamda sayyohlar ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanatni baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi taklif etiladi. Tadqiqot doirasida overturizm indeksini hisoblash formulasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u turistik zichlik hamda turistlar va aholi nuqtai nazaridan qoniqish ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: overturizm, sayyohlik sig‘imi, turizm indeksi, turistik infratuzilma, turistlar zichligi, turizmni boshqarish, barqaror turizm

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

14.03.2025 йилда теришга берилди. 25.03.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,87. Адади 100 нусха. Буюртма № 0012А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.